

INGLIZ TILI BIZNES DISKURSIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDAN FOYDALANISH BORASIDA

Jo 'ramurodov J.P.¹

Annotatsiya:

Zamonaviy biznes sohasi o'z fikrini erkin, ekspressiv tarzda bayon qila olishni, nutq jarayonida idiomalardan, va xattoki turli xil so'z o'yinlaridan samarali foydalanishni talab etmoqda. Mazkur maqolada ingliz tilida gapiruvchi xalqlar madaniyatini o'ziga xos qirralarini ifoda etuvchi, shuningdek zamonaviy biznes olamiga muvofiq keluvchi tarkibida oziq-ovqat nomlari bo'lgan ayrim frazeologik birliklar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, frazeologik birliklar, badiiy-tasviriy, idiomatik ifodalar, biznes diskursi, muloqot, global iqtisodiyot.

doi: <https://doi.org/10.2024/hwjqp07>

Hozirgi davrda dunyo aholisining aksariyati o'z ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish uchun xalqaro muloqot tili sifatida ingliz tilidan foydalanmoqda. Bugungi kunda ingliz tili turli sohalarda: turizm sohasida, moliyaviy munosabatlarda, telemuloqotlarda, diplomatiyada yetakchi til sifatida qaralmoqda. Shuningdek, korxonalarining kengayib, yirik kompaniya va korporatsiyalarga aylanishi va bunday yirik korxonalarda turli millat va elatlarga mansub mijozlar, hamkasblar va hamkorlar bilan ishni olib borish uchun yagona muloqot tiliga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun ingliz tili 21-asrda iqtisodiyot, tadbirkorlik ishlari va savdo-sotiq sohalarida ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Endilikda ingliz tilida samarali muloqot qila olgan kishigina o'z hamkasblari orasida raqobatbardosh ustunlikka ega bo'la oladi.

Tezis: Tarkibida oziq-ovqat nomlari bo'lgan idiomatik birliklardan nutq jarayonida samarali foydalanish ingliz tilida yaxshi biznes muloqotni tashkil qilish uchun muhim omil vazifasini o'taydi.

Tarkibida oziq-ovqat nomlari qatnashgan ingliz tili frazeologiyalarni tahlil qilishdan oldin inglizlar tomonidan sevib iste'mol qilinadigan taomlardan xabardor bo'lishimiz talab etiladi. Bunday ingliz taomlari qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

porridge - jo'xori va boshqa shunga o'xshash ekinlarning donini suvga yoki sutga qaynatib hosil qilingan butqa;

pudding - asosiy ovqatdan keyin dasturxonga tortiladigan ko'pincha mevalardan, shuningdek qandolat, un, non yoki guruchdan tayyorlanadigan issiq shirin taom [5].

corn – makkajo'xori sutasi;

cake – pirog;

carrot – sabzi;

bean – loviya;

tea – choy;

ginger – zanjabil... [1]

Ingliz tilida gaplashuvchi biznes hamkor bilan muloqotga kirishishda tadbirkor o'z nutqida tarkibida yuqorida qayd etilgan oziq-ovqat nomlari bo'lgan quyidagi iboralarni ishlatishi yaxshi samara keltiradi deb hisoblaymiz:

(as) plain as porridge (tushunish oson);

¹ Jo 'ramurodov J.P., SIUT

Everything tastes of porridge (haqiqat baribir qaror topadi);
 pace around hot porridge like a cat (qog'ozga urab gapirmoq)
 feed smb. on soft corn – kimgadir xushomad qilmoq, kimgadir takalluf bildirmoq;
 go like hot cakes – yaxshi sotilmoq, xaridorgir bo'lmoq;
 like a carrot to a donkey – laqqa tushish, yaxshigina o'ljaga aylanish;
 full of beans – yaxshi kayfiyatda;
 put some ginger into smth. – o't bilan o'ynashmoq... [5].

O'z navbatida ta'kidlab o'tishimiz lozimki, Amerika Qoshma shtatlarida pishloq (pie) ishlab chiqarish alohida milliy madaniyat sifatida qadrlanadi. Bu mamlakat pishloq ishlab chiqarish bo'yicha Niderlandiya, Fransiya, Belgiya davlatlaridan keyin dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi [3].

Amerikaliklarning maxsus pishlog'i - "pie" odatda ust qismi turlicha ko'rinishda bo'lgan meva yoki go'sht va sabzavotlardan tayyorlanib pishirilgan taom hisoblanadi [4].

Bunday pishloqlarning Amerika madaniyati belgisi sifatida qadrlanishini inobatga olgan holda zamonaviy ingliz so'zlashuv tilida "pie" so'zi bilan hosil qilinadigan frazeologik birliklar ancha ko'p miqdorda ekanligini ham qayd etib o'tishimiz joiz. Masalan "Pie – Idioms by the Free Dictionary" lug'atida "pie" so'zi yordamida hosil qilingan 60 ga yaqin frazeologik birlik keltirilgan. [4].

Shu boisdan amerikalik hamkorlar bilan biznes sohasida muloqot qilganda tarkibida "pie" so'zi ishtirok etgan quyidagi frazeologiyalardan samarali foydalanishni tavsiya etamiz:

as American as apple pie – sof amerikanacha;
 to have a finger in every pie – birvarakayiga ko'p ish bilan shug'ullanmoq;
 a slice/piece/share of the pie – foydaning bir qismi;
 as easy as pie – juda oson, xamirdan qil sug'urgandek...[2].

Demak, tarkibida oziq-ovqat nomlari qatnashgan ingliz frazeologik birliklari nafaqat kundalik hayotning turli sohalarida, balki tadbirkorlar o'rtasidagi og'zaki muloqot doirasida ham keng qo'llanilar ekan. E'tiborlisi shundaki, tadbirkorlik sohasidagi uchrashuvlar paytida frazeologik birliklarga murojaat qilish orqali tadbirkor o'z nutqiga shunchaki yorqinlik va ravshanlik berish bilan kifoyalanmaydi, shu bilan birga u yana biznes hamkorlari bilan yaxshi ishni tashkil qilishda ham qulay va samarali muhitni yarata oladi.

Xullas, biznes ingliz tilini o'rganish bugungi global iqtisodiyotda muvaffaqiyatga erishish uchun o'ta zarurdir. Ingliz tili leksikasidan, ayniqsa bu tilning emotsional-empresiv vositalari bo'lmish frazeologik birliklaridan biznes diskursda samarali foydalangan tadbirkorgina martabasi yuksalib, kasbiy rivojlanishini tezlatish imkoniyatiga ega bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Мюллер В.К. *Англо-русский словарь*. -М.: Русский язык, 1985. – 864 с.
- [2]. <https://dictionary.cambridge.org>
- [3]. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/niderlandiya-pishloq-ishlab-chiqarish-buyicha-jahon-rekordini-urnatdi>
- [4]. <https://dictionary.cambridge.org>
- [5]. <https://idioms.thefreedictionary.com>